

## **Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot**

2021-2022-o'quv yilining yakunlariga ko'ra Agentlik tizimidagi 14 ta Prezident maktabini 92 nafar, 9 ta ijod maktabini 138 nafar va 3 ta tayanch ixtisoslashtirilgan maktabni 170 nafar o'quvchimiz muvaffaqiyat bilan yakunladi. Bugungi kunda 100 foiz bitiruvchi oliy ta'lim bilan qamrab olindi.

2022-yilda Agentlik safi yanada kengaydi: 2022-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-son Farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra, Agentlik tizimida jami 193 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning tashkil etilishi belgilandi. 168 ta ixtisoslashtirilgan maktablar 2022-o'quv yilida ochilib, aniq va tabiiy fanlarga qiziquvchi iqtidorli o'quvchilar saralab olindi.

Qabul jarayonlari shaffof va adolatli tarzda tashkil etildi. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga hamda "Yangi O'zbekiston" universitetiga talabgorlarning hujjatlari onlayn platforma orqali qabul qilindi, saralandi. Bu ishlarning barchasi bugun kun talabiga javob beradigan, xalqimizga yengillik tug'dirilgan holda – onlayn shaklda – ariza.piima.uz sayti orqali amalga oshirildi.

Shuningdek, Agentlik tomonidan Prezident maktablariga kirish imtihonlarining 2-bosqichidan o'tolmagan talabgorlarga o'zlari ta'lim oladigan hududda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablardan biriga o'qish uchun ariza topshirish imkoniyati yaratildi.

Bunda ular kvotaning 50 foizi doirasida ballar ketma-ketligi asosida imtihonsiz mazkur ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul qilindi.

Mazkur yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga pedagog-kadrlarni ham saralab olish maqsadida Agentlik tomonidan tanlov e'lon qilindi.

O'qituvchilar 3 bosqichli saralash asosida (hujjatlar qabuli, test va suhbat) ishga qabul qilindi. 1-bosqich - hujjatlar qabuli 2022-yilning 20- apreldan 20-mayiga qadar job.piima.uz sayti orqali onlayn amalga oshirildi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi 14 ta Prezident maktabi A-level imtihonlarini o'tkazuvchi rasmiy markaz sifatida tan olindi.

Ma'lumot o'rnida, A-level sertifikati 1750dan ortiq xorijiy OTMLar tomonidan tan olinadi.

Agentlik tomonidan tizimdagi barcha ixtisoslashtirilgan va ijod maktablarida summativ baholash tizimi amaliyotga tatbiq etildi.

Mazkur tizimning o'ziga xos tomoni unda baholash tizimida inson omilining minimallashtirilgani hisoblanadi.

O'quvchilarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablardagi o'qitish tizimi bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish yuzasidan Agentlik tomonidan MTRK bilan hamkorlikda "Oltin fondimiz", "Bilim doirasida", "Sport va ta'lim" ko'rsatuvlari yo'lga qo'yildi.

2022-yilning 9-16-may kunlari Agentlik tomonidan 56-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasi tashkil etildi.

Unda dunyoning 16 ta mamlakati ishtirok etdi. Olimpiada yakunlariga ko'ra O'zbekiston terma jamoasi 1 ta oltin, 4 ta kumush va 5 ta bronza medalini ko'lga kiritishdi.

2022-yilning 22-25-may kunlari Agentlik delegatsiyasi Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan Butunjahon ta'lim forumida ishtirok etdi.

Forum doirasida bir nechta xalqaro tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Xususan, Agentlik delegatsiyasi doimiy hamkori Cambridge Assessment International Education, Times Higher Education va British Council tashkilotlari vakillari bilan ham uchrashishdi va istiqboldagi rejalar muhokama qilindi.

Prezident maktablari Universitetlar kengashi tashkilotining a'ziligiga qabul qilindi. Mazkur a'zolik maktablarga Kengash axborot-resurs manbalaridan foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, Agentlik tizimidagi Nukus, Xiva, Namangan va Toshkent shaharlaridagi Prezident maktablari CIS (Xalqaro maktablar kengashi) a'ziligiga qabul qilindi.

Xalqaro maktablar kengashi a'zosi bo'lish ta'lim muassasasining xalqaro darajada tan olinganligini bildiribgina qolmay, ushbu maktablarda o'qiydigan o'q uvchilarning chet eldagi TOP universitetlarda to'liq grant yutish imkoniyatini oshiradi.

2022-yilning 4-9-noyabr kunlari "Zamin" Xalqaro jamoat fondi bilan hamkorlikda inklyuziv "Eko IT oromgoh" tashkil etildi. Unda Respublikaning turli maktablaridan 200 ga yaqin bolalar ishtirok etishdi. Oromgoh doirasida "Aqlli issiqxona", "Aqlli jo'mrak" kabi loyihalar tayyorlanib, taqdim etildi.

2022-yilning 21-26-noyabr kunlari Digital Generation Uzbekistan NNT va Google kompaniyasi bilan hamkorlikda "Raqamli avlod IT haftaligi" tadbiri bo'lib o'tdi. Haftalik doirasida "Robo Sumo", "Robo labirint", "Robo Futbol", "DG Contest" (sport dasturlash chempionati) bo'yicha respublika miqyosidagi turnirlar bo'lib o'tdi.

Unda 10 dan ortiq xorijiy IT-kompaniyalar (Google, Uber, Yandex, Microsoft, EPAM, iTechArt, Alif), mamlakatimizning IT universitetlari va kompaniyalari ishtirok etdi, 10 ta xorijiy mutaxassislar va 20 nafar mahalliy yuqori malakali mutaxassislar so'zga chiqdi.

Tadbirda jami 2500 nafar ishtirokchi qatnashdi, shuningdek, 1500 nafardan ortiq onlayn tarzda ishtirok etdi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning (inklyuziv) ishtirok etishi uchun maxsus sharoitlar yaratib berildi.

Shuningdek, 2022-yilning noyabr oyida Agentlik tizimidagi maktablarda tahsil oluvchi 3 nafar o'quvchimiz Yaponiyaning "Sakura Science High School Program" (SSHP) dasturida ishtirok etishdi.

Mazkur dasturdan ko'zlangan maqsad yuqori sinf o'quvchisi bo'lgan xorijiy mamlakatlar fuqarolarini Yaponiyaning fan va texnologik yutuqlari, kunchiqar mamlakat madaniyati va jamiyati bilan yaqindan tanishtirishdir.

Bundan tashqari:

Agentlik tomonidan aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar uchun informatika, matematika, fizika fanlaridan, tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar uchun kimyo, biologiya fanlaridan, ijod maktablari uchun ona tili, adabiyot hamda barcha maktablarimiz uchun chet tili va O‘zbekiston tarixi kabi jami 9 ta ta’lim dasturi ishlab chiqildi.

Cambridge Assessment International Education (Angliya) tashkiloti bilan fizika va biologiya fanlaridan o‘quv-metodik adabiyotlarini mahalliyashtirish ustida ish olib bormilmoqda. Bu loyihaga hozirda 40 nafarga yaqin mutaxassislar jalb etilgan. Darsliklarni tarjima qilish va mahalliyashtirish jarayonlari Kembrij tashkiloti bilan bevosita birgalikda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, SAT imtihonlari endi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan tashkil etiladi.